



AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEKNOLOGIYALARI YORDAMIDA INGLIZ TILI DARSLARINI O'TKAZISH AFZALLIKLARI

Muallif: Vosiyeva Shaxnoza Islamovna¹

Affiliatsiya: Buxoro davlat pedagogika instituti, 2- bosqich tayanch doktoranti¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15194146>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada axborot kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) ingliz tili darslarida qo'llanilishi tahlil qilinadi. AKT yordamida darslarni o'tkazishning afzalliklari, metodologiyalari va talabalar o'rtaсидagi interaktivlikni oshirish usullari ko'rib chiqiladi. Maqola o'qituvchilar va ta'lif muassasalari uchun AKT dan samarali foydalanish bo'yicha tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: Axborot kommunikatsiya texnologiyalari, ingliz tili, ta'lif, interaktivli, o'qitish metodlari

KIRISH

Zamonaviy ta'lif jarayonida axborot kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) o'zining ahamiyatini yanada oshirib bormoqda. Ingliz tili darslarida AKT dan foydalanish nafaqat ta'lif sifatini oshiradi, balki talabalar o'rtaсидida interaktivlikni, motivatsiyani va o'zaro aloqani kuchaytiradi. Ushbu maqolada AKT ning ingliz tili darslaridagi roli, uning afzalliklari va darslarni o'tkazishdagi samarali usullari ko'rib chiqiladi.

Chet tili o'rganishga bo'lgan talab kundan-kunga oshib bormoqda. Chet tili fani to'rt aspectga (o'qish, yoish, tinglab tushunish va gapishtirish) bo'linib, ularning har biri bo'yicha alohida tushuncha va ko'nikmalar berilmoqda. Ta'lif texnologiyalari, bu ta'lif jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishdir. Shuningdek, ta'lif jarayoniga zamonaviy innovatsion texnologiyalarini olib kirish orqali ta'lif sifati va samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Xususan, chet tilini o'rganishda bunday axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning bir qancha afzalliklari mavjuddir. Til o'rganish va o'qitishda zamonaviy taxnologiyaning roli beqiyosdir. Texnologik vositalardan foydalanish chet tilini o'rganishning har bir aspect (o'qish, yoish, tinglab tushunish va gapishtirish)ida qo'l keladi. Masalan, tinglab tushunish uchun, albatta kompyuter, player, CD disklarsiz bu jarayonni amalga oshirish mumkin emas. Tinglab tushunish til o'rganishning eng muhim qismlaridan biridir. Bunda o'quvchi bir paytning o'zida so'zlovchining talaffuzi, grammatik qoidalarga rioya qilganligi, so'z boyligi va uning ma'nolariga e'tibor berishi talab qilinadi. Ta'lif jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda o'quvchilar ham axborot — kommunikatsion texnologiyalarni yaxshi bilish va ulardan foydalana olishi muhim omil hisoblanadi. Chet tilini zamonaviy texnologiyalardan foydalaniб o'rgatish va o'rganish eng samador usullardan biridir.



Bu jarayonda, jumladan: – kompyuterlardan foydalanganda o'quvchi chet tilidagi video rolklarni, namoyishlarni, dialoglarni kino yoki multfilmlarni ham ko'rishi ham eshitishi mumkin;

– chet tilidagi radio eshittirishlar va televideniedagi dasturlarni eshitish va tomosha qilish mumkin;

– ancha an'anaviy usul hisoblanadigan magnitafon va cassetalardan foydalanish;

– CD pleyerlardan foydalanish mumkin.

Bu texnik vositalardan foydalanish o'quvchilarning chet tilini o'rganishlari jarayonini qiziarliroq va samaraliroq bo'lishini ta'minlaydi. Bugungi kunda maktablarda interfaol o'yinlar orqali dars o'tish an'anaga aylanib bormoqda. Ma'lumki, darsning turli xil o'yinlar asosida o'tilishi o'quvchilarning imkoniyatlarini namoyish etish, diqqatni jamlash, bilim va ko'nikmalarini oshirish va kuchli bo'lishlarini ta'minlaydi. O'yin texnologiyasidan foydalanishning asosini o'quvchini faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyat tashkil etadi. Psixologlarning ta'kidlashlaricha, o'yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, hayotda barqaror o'rnini topish, o'zini o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi. Har qanday o'yin zamirida umumiy qabul qilingan ta'lim prinsiplari, taktikasi yotishi kerak. O'quv o'yinlariga o'quv predmetlari asos qilib olinishi kerak. O'yinlar jarayonida o'quvchi oddiy darsga qaraganda bu mashg'ulotga qiziqibroq yondashadi va bemalol faoliyat ko'rsatadi. Ta'kidlash lozimki, o'yin eng avallo, o'qitishning bir usulidir. O'quvchilar o'yinli darslarga qiziqib qatnashadilar, g'alaba qozonishga intiladilar, o'qituvchi ular orqali o'quvchiga ta'lim-tarbiya ham beradi. O'quvchi inglizcha o'yin o'ynab, gapira olarkanman, tinglab tushuna olarkanman, yoza olarkanman, deb ishonadi, qiziqadi. Biz bilamizki, hozirgi ta'lim jarayonida o'quvchi sub'ekt bo'lishi lozim. Bunda ko'proq interfaol metodlarga e'tiborni qaratish ta'lim samaradorligini oshiradi. Ingliz tili darslariga qo'yilgan eng muhim talablardan biri talabalarni mustaqil fikrlashga o'rgatishdi

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Adabiyotlar tahlili orqali AKT ning ta'limdagi o'rni va ahamiyati haqida bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Anderson (2008) va Garrison Anderson (2003) kabi olimlar onlayn ta'lim va AKT ning ta'lim jarayonidagi rolini ta'kidlaganlar. Ushbu maqolada o'zaro aloqani kuchaytirish, talabalar motivatsiyasini oshirish va darslarni qiziqarli qilish uchun turli metodologiyalar ko'rib chiqiladi.

Metodologiya sifatida sifatli tadqiqot usuli tanlangan bo'lib, bu o'qituvchilar va talabalar bilan intervyular o'tkazish, dars jarayonlarini kuzatish va anketalar yordamida ma'lumot to'plashni o'z ichiga oladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida, AKT dan foydalanish orqali ingliz tili darslarida talabalar o'rtasida interaktivlikning sezilarli darajada oshgani aniqlangan. Onlayn platformalar, multimedia materiallari va mobil ilovalar yordamida talabalar darsga ko'proq jalb qilinadi. Shuningdek, o'qituvchilar tomonidan AKT ni qo'llash orqali darslarni qiziqarli va samarali o'tkazish imkoniyatlari kengayadi.

Talabalar o'z-o'zini o'qitish imkoniyatidan foydalangan holda, mustaqil ravishda bilim olishlari mumkin. Biroq, ba'zi o'qituvchilar yangi texnologiyalarni qo'llashda qiyinchiliklarga duch kelishgan, bu esa ularning pedagogik yondoshuvlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Dars jarayonida qiyinchiliklar odatda darslar o'quvchilar uchun zerikarli bo'lganligi sababli paydo bo'ladi. O'qituvchilar va talabalar darsni tashkillashtirishda odatdagidek va an'anaviy avtoritar o'qitish bilan mashq qilishda qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Markazlashtirilgan o'quv shaklini (yoki ijtimoiy shaklini) amalga oshirish o'quvchilarning qo'liga muhim vakolatlarni beradi, ularni faollashtiradi va shu sababli ham ko'plab intizomiy qiyinchiliklar yuzaga kelmaydi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Ingliz tili darslarida innovatsion usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatları rivojlanadi, nutqi ravonlashadi, tez va to'g'ri javob berish malakasi shakllanadi. Bunday usullar o'quvchida bilimga ishtiyoq uyg'otadi. O'quvchi darslarga puxta hozirlilik ko'rishga intiladi. Bu esa o'quvchilarni ta'lim jarayonining faol sub'yektlariga aylantiradi. Ta'lim tizimi o'z oldiga erkin fikrlovchi, barkamol, yetuk shaxsni tarbiyalashni vazifa qilib qo'yar ekan, kelgusida biz bo'lajak o'qituvchilar innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish yo'llarini yanada mukammalroq ishlab chiqshimizimiz bilan o'z xissamizni qo'shishimiz mumkin. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari ingliz tili darslarini o'tkazishda muhim vosita hisoblanadi. Ularning yordamida darslar yanada interaktiv, qiziqarli va samarali bo'ladi. O'qituvchilar AKT dan foydalanishni o'z pedagogik faoliyatlariga kiritib, talabalarning tilni o'zlashtirish jarayonini sezilarli darajada yaxshilashlari mumkin. Keljakda AKT ni ta'lim jarayonida yanada kengroq qo'llash, talabalarni zamonaviy dunyoda muvaffaqiyatli raqobatbardosh qilib tayyorlashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Anderson, T. (2008). *The Theory and Practice of Online Learning*. Athabasca University Press.
2. Garrison, D. R., Anderson, T. (2003). *E-Learning in the 21st Century: A Community of Inquiry Framework for Online Learning*. RoutledgeFalmer.
3. Warschauer, M., Healey, D. (1998). *Computers and Language Learning: An Overview*. Language Teaching, 31(2), 57-71.
4. Hockly, N. (2012). *Digital Literacies*. ELT Journal, 66(1), 62-71.
5. Kessler, G. (2010). *Language Learning in Virtual Worlds*. CALICO Journal, 27(2), 309-322.
6. Vosiyeva Sh.I. The advantages of using information technologies in teaching english as a foreign language Eurasian Scientific Herald (ESH), December, 2024, volume 38, ISSN (E): 2795-7365, SJIF: 7.619, JIF: 9.765
7. Vosiyeva Sh.I. МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ В ВУЗЕ Conference on social sciences and humanities Research (CSSHR Volume1. №3| Dekabr 2024 ISSN: 3060-4648 <https://eyib.uz>.